

## Saxovatpeshalik - olihimmatlik belgisi



04.12.2022

## Saxovatpeshalik - olihimmatlik belgisi

Inson fikrlashi bilan jonzoatlardan farq qiladi, degan gapni ko'p bor eshitganmiz. Uning ezgulikka yo'g'rilgan hissiyot qo'rg'oni - yuragi urib tutar ekan, yaxshilik va ezgulik qilishdan, mehr-saxovat ulashishdan charchamaydi. Xalqimizga xos insoniylik, saxovatpeshalik va bag'rikenglik 3 dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan uyushtirilayotgan tadbirlarda o'z aksini topdi. Sana munosabati bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xujaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbaev va Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini X.Eshova, fakultet tyutorlari O. Abdisamatov, S. Ibragimova, A. Xaitovalar tashabbusi bilan Olmazor tumani 36-maktab internet tarbiyalanuvchilarini bayram bilan qutlashdi. Ushbu bayram tadbiri maktab internati o'quvchilarmizni saxovatpesha homiylar tomonidan shahrimizdagi "Tarona" to'yxonasida bayram dasturxonuga maktab internatidagi o'quvchi yoshlarimiz tashrif buyurdilar.



Ishtirokchilar turli jamoat va davlat tashkilotlari faollarining ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashlaridan ko'ngillari tog'dek ko'tarildi. "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi" shiori ostida o'tgan tantanali bayram tadbirida, faol talabalarimiz ijrosidagi kuy-qo'shiqlar tadbirga o'zgacha fayz kiritdi. 36 - maktabda tarbiyalanuvchi imkoniyati cheklangan, nogiron 262 nafar o'quvchilar qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar. To'rt muchaning butligi, tafakkurning ravshanligini his qilish baxt! Buni chuqur anglagan holda har doim fidokorlik bilan ishlash, yuqori marralarga intilish esa chin insoniylik mas'uliyati namoyishidir.



Millatimiz azal-azaldan mehr-oqibatli bo'lib kelgan. Yiqilganni suyash, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish azaliy odatlarimizdan. Xalqimizga xos bag'ri kengligi, mehribonlikdan beixtiyor faxr-iftixor tuyasan kishi. Mehrni hamma narsadan ustun qo'ygani bois, o'zbek nomi, millat sha'ni yuksalib kelayotir. Bugun kechagidan-da ko'proq oqibatli bo'laylik. Zero, insondan mehru muhabbat, odamiylik eng oliy xislatlaridan biridir.

**Yer resurslarini boshqarish fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini X.Eshova axboroti**